

5. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709-1876 йй.). – Наманган, 1994. – 136 б.
6. Tursunov B. Qo‘qon xonligidagi harbiy ustaxonalar faoliyatiga doir ayrim ma’lumotlar // Tarix tilga kirganda... Davriy to‘plam. – №1. – Namangan, 2007.

UDK: 94(575.1:47)“18”

070001 — Tarix fanlari

Odiljonov Xayitali Shavkatjon O‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Talabasi
E-mail: hayitaliodiljonov54@gmail.com
Tel: +998 99 213 76 93
O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shaxri

QO‘QON XONLIGINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, Qo‘qon xonligi aholisining hunarmandchiligi va turmush tarzi kabi jarayonlar manbaalar asosida yoritiladi. Shuningdek Qo‘qon xonligidagi soliq tizimlari ham chuqurroq yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon xonligi, soliq tizimi, hunarmandchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabat, ichki va tashqi davdo*

Одилжонов Хайтали Шавкатжон ўғли
Андижанский государственный университет
Факультет истории и социальных наук, студент
E-mail: hayitaliodiljonov54@gmail.com
Тел: +998 99 213 76 93
Республика Узбекистан, г. Андижан

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Аннотация. В данной статье на основе источников освещаются социально-экономические отношения в Кокандском ханстве, ремесленничество и образ жизни его населения. Также подробно анализируется налоговая система Кокандского ханства."

Ключевые слова: Кокандское ханство, налоговая система, ремесленничество, социально-экономические отношения, внутренняя и внешняя торговля.

SOCIO-ECONOMIC RELATIONS OF THE KOKAND KHANATE

Odiljonov Khayitali Shavkatjon oqli

Andijan State University

Faculty of History and Social Sciences, Student

E-mail: hayitaliodiljonov54@gmail.com

Tel.: +998 99 213 76 93

Republic of Uzbekistan, Andijan

Abstract. This article examines the socio-economic relations of the Kokand Khanate, as well as processes such as the craftsmanship and lifestyle of its population based on historical sources. Furthermore, the taxation systems within the Kokand Khanate are analyzed in depth.

Keywords: Kokand Khanate, taxation system, craftsmanship, socio-economic relations, internal and external trade.

Kirish

Har bir davlatning davlatchilik tarixini o‘rganishdagi muhim sohalardan biri bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasi hisoblanadi. Bu bevosita davlat hayotining qanday ekanini, xalq qanday istiqomat qilishi haqida ma’lumot beradi. Shuning uchun bu sohaning tarixini o‘rganish ham davlatchilik tarixi uchun ahamiyatlidir. Hususan, ushbu ilmiy maqolada Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari manbaalarni tahlil qilgan xolda yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarida Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ilmiy jurnallarda va ilmiy-nazariy konferensiyalarda xonlik tarixiga oid yuzlab ilmiy maqolalar e’lon qilindi. H. Bobobekov, Sh. Vohidov, Y. Qosimov kabi tarixchilarning asarlari nashr etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Ustoz tarixchilarning izidan borgan bir necha yosh tarixchilar esa Qo‘qon xonligi tarixi bo‘yicha tadqiqod ishlarini olib bordilar. Tez orada bu yosh tadqiqodchilarning izlanishlari o‘z natijasini berdi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun 2004-yilda Z. A. Ilhomov “Aliquli amirlashkar va uning Qo‘qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o‘rni” mavzusida, 2006- yilda B. Ya. Tursunov “Qo‘qon xonligida harbiy ish va qo‘shin: holati, boshqaruvi, an’analari” mavzusida, Sh. Yu. Mahmudov 2007-yilda “Qo‘qon xonligining ma’muriy-boshqaruv tizimi (1709-1876-y.y.)” mavzusida, Z. Sh. Madrahimov 2009-yilda “Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari” mavzusida, Sh. T. Qo‘ldoshev 2009-yilda “Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy madaniy

aloqalar (XVIII-XIX asrning birinchi yarmi) mavzusida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar [1, 4-b].

Qo‘qon xonligi ko‘p millatli davlat hisoblanib, ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asrning 70-yillarida xonlik aholisining umumiy soni 3 milliondan ortiq bo‘lgan. Xonlik hududida o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlar, yahudiylar, arablar, eronliklar, ruslar, tatarlar, dunganlar va boshqa xalqlar yashagan. Son jihatdan aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil etgan. Undan keyingi o‘rinda tojiklar turgan. Ular, asosan, O‘ratepa, Xo‘jand, Konibodom, Isfara, Qorategin, So‘x, Rishton, Chust, Kosonsoy hududlarida yashaganlar. Ularning asosiy xo‘jaligi dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va qisman, chorvachilikdan iborat bo‘lgan [1, 24-b].

Qo‘qon xonligi geografik jihatdan ham ancha yirik hududlarni egallagan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi Targ‘ova, Pillaxon, To‘qaytepa, Parnok, Tepaqo‘rg‘on va Qaynar mavzelari yangi mustaqil davlatning dastlabki hududlari hisoblangan [1, 15-b].

Marg‘ilon, O‘sh, Andijon, Namangan, Shahrixon, Baliqchi, Navqot, Chust, Buloqboshi, Aravon, Koson, Mahram, So‘x, Xo‘jand, Toshkent, Turkiston hamda O‘ratepa kabi yirik shaharlari bo‘lgan [2, 18-b]

Qo‘qon xonligida yer egaligining 3 turi mavjud bo‘lgan: amlok (davlat yerlari), xususiy yerlar va vaqf. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, barcha yerlar davlatniki, deb e‘lon qilingan edi. Shuning uchun mulkdorlar yerga emas, yerdan olingan mahsulotlarga, imoratlarga egalik qilar edilar. Yerga egalik qilishda shariat qonun-qoidalariga amal qilingan. Agar 3 yil mobaynida yerdan foydalanilmasa, xiroj (ijara) haqi to‘lanmasa, yer egasi yerdan mahrum qilingan [1, 30-b].

Qo‘qon xoligining yer-suv (agrar) munosabatlari: Ma‘lumki, Qo‘qon xonligida dehqonchilik yuqori ravnaq topib yerdan unumli foydalanish, dehqonchilikda yuqori hosil olishganini manbaalar orqali bilishimiz mumkin. Buning sababi esa xonlikda sug‘oriladigon yerlar tizimli va o‘rinli tashkil etilishi bilan belgilash mymkin. Masalan Qo‘qon xonligiga qarashli yerlar Norin, Qoradaryo, So‘x, Isfara, Marg‘ilonsoy, Shohimardon, Aravon, Qurshob, Asht, Novqat, Oqbura, Qorabura, Kosonsoy, Chirchiq, Ohangaron, G‘ovasoy, Chodaksoy, Podshootasoy kabi daryo va soylardan suv ichgan [1, 31-32-b]. Bunday soy va kanallarni qazish ishlari XIX asrda, Farg‘onada sug‘oriladigan yerga bo‘lgan ehtiyoj misli ko‘rilmagan darajaga yetgan bir paytda barpo etildi. Bunday kanallarning eng ahamiyatlisi Namangan tumanidagi Yangiariq bo‘lib, uni o‘tkazish ishlari 1819-yilda, Umarxon hukmronligi (1809–1822) davrida boshlangan va uch yil davom etgan. Umarxonning vorisi Madalixon (1822–1842) davrida esa o‘sha paytda Qo‘qon mulklari tarkibiga kirgan Toshkent tumanida yirik Xonariq kanali o‘tkazildi. Shunisini takidlash joizki, hatto 60-yillarda Farg‘onada yuzaga kelgan o‘ta xavotirli siyosiy vaziyatda ham sug‘orish ishlari jadal sur‘atlar bilan davom ettirilib, 1868–1871-yillar oralig‘ida Farg‘onaning eng yirik kanallaridan biri Ulug‘nor kanali qazildi [6.181-182-b].

Musulmonqul 1839-1840-yillarda xalq kuchi bilan kanal qazdirgan. Bu kanal keyinchalik uning nomi bilan atalgan. 1853- yil Marg ilon hokimi O‘tanboy shahardan 8 chaqirim uzoqlikdagi Fayziobod qishlog‘ida Devonarabod qishlog‘i tomonga qarab xon buyrug‘i bilan ariq qazdirgan. XIX asrning 50-yillarida Chinobod arig‘i, keyinroq Xo‘ton arig‘i kavlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu ariqlarning qurilishida sharqiy turkistonlik mardikorlar va xitoy asirlarining mehnati katta bo‘lgan [2. 32-b].

XIX asrning 70-yillarida to‘plangan Farg‘onadagi yer-suv munosabatlariga oid ma’lumotlarga ko‘ra, xonlikda yersiz dehqonlar soni juda salmoqli bo‘lgan. Buni, xususan, hosilning bir qismi evaziga yerni ijaraga berishning (chorakorlik) turli shakllari keng tarqalgani, shuningdek, kishilarning o‘z mehnatini sotishga majbur bo‘lgani kabi faktlar tasdiqlaydi [6.188-b].

Tarixchi Y. Qosimovning ma’lumot berishicha, 1803- yili Norin daryosining o‘ng sohilida hashar yo‘li bilan Yangiariq arig‘i kavlangan. U Qizilravot, Uychi, Chortoq, Namangan va Xonobod kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta’minlagan. Yangiariqdan umumiy 96 ta ariq chiqarilgan. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq kanalini kengaytirish boshlangan. Farmonga ko‘ra, Namangan viloyatidan har bir oiladan bir odam o‘z ish quroli va o‘n besh kunlik ozuqasi bilan kelishi majburiy bo‘lgan [2.32-b].

Qo‘qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bo‘lgan. Misgar, zargar, o‘ymakor, qurolsoz, kulol, qog‘ozgar, to‘qimachi, do‘ppi tikuvchi, kashtakach, ko‘priksoz, temirchi, nonvoy, aravaso, baxmalbof, bujgun, bo‘yoqchi, gilkor, dorikash, jibachi, devorzan, degrez, yormado‘z, kutay, miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po‘stindo‘z, taqachi, tubrez, paranjido‘z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hokozolar. Qo‘qon shahrida haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor bo‘lgan. Qo‘qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalari o‘rnatishga imkon yaratgan [3, 94-b]

XVIII-XIX asrlarda Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish tanazzulga ketayotgan davrda Qo‘qonda qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yila boshlangan. Bu tovar tayyorlash Samarqandlik qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustalarning Qo‘qonga ko‘chib kelishi bilan bog‘liq. Buning natijasida Qo‘qon Orol dengizidan Xitoygacha qog‘oz ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi monopoliyaga aylanib qolgan. Qo‘qon qog‘ozi Qoshg‘ar, hattoki shimoliy Afg‘onistonga ham olib borilgan. Qo‘qondan tashqari boshqa joylarda ham qog‘oz ishlab chiqilgan. Ammo Qo‘qon qog‘ozi o‘zining sifati va ko‘pligi bilan ulardan ancha ustun bo‘lgan. O‘rta Osiyolik olimlar, tarixchilar, shoirlar o‘z asarlarini Qo‘qon qog‘oziga yozganlar. Bu qog‘ozlardan devonxonada ham keng foydalanilgan. Mahalliy qo‘lyozma asarlar va turli xil diplomatik hujjatlar Qo‘qon qog‘ozida yozilgan. XIX asr boshlarida Toshkentda bo‘lgan sibir kazaki Maksimov qog‘oz Qo‘qon va Toshkentda tayyorlanadi, deb yozgan edi [4, 28-b]. Shuningdek, Qo‘qon qog‘ozi haqida rus sayyohi Potanin shunday deydi: Qo‘qon xonligi sarhadlaridan tashqarida ham keng tarqalgan hunarmandchilik qog‘ozi (qo‘lyozma qog‘oz)

ishlab chiqarilar edi. Bu haqida Ivanov. P. P o‘zining “ОЧЕРКИ ПО ИСТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ” asarida aytib o‘tadi.

Qo‘qon xonligida hunarmandchilikning qog‘oz ishlab chiqarishdan boshqa sohalari ham ravnaq topgan edi. Hunarmandchilikning asosiy yo‘nalishlaridan biri to‘qimachilik bo‘lib, uning asosiy xom ashyosi mahalliy paxta bo‘lgan. To‘qimachilik mahsulotining bo‘z, karbas, olacha, chit kabi turlari hunarmandchilikning asosiy mahsulotlari bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida hunarmandchilikning muhim tarmoqlaridan yana biri kulolchilik bo‘lib, bu mahsulotlarga talab doimo katta bo‘lgan. Buxoro va Xiva xonliklari kabi Qo‘qon xonligida ham o‘ziga xos kulolchilik maktabi shakllangan edi. Rishton shahrida xonlikdagi eng sifatli haridorgir kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, mahalliy me‘morchilik inshootlari uchun g‘isht pishiruvchi xumdonlar qurilgan. Shu g‘ishtlardan madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan [1, 34-b].

Xonlikda hunarmandchilikning ko‘nchilik va teriga ishlov berish yo‘nalishlari ham rivojlangan. Qo‘qon, Toshkent, Andijon va O‘sh shaharlarida terini qayta ishlash va undan poyabzal tayyorlash bilan birga teridan kiyim-kechak, bosh kiyim, suv va qimiz uchun meshlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Xonlikning ichki va tashqi savdo munosabatlari ham faol rivojlangan. Hususan mamlakat bozorlariga qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog‘li hudud aholisi va ko‘chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib chiqqan. Tashqi savdoda Buxoro va Xiva xonliklari Rossiya, Turkiya, Arab mamlakatlari, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, Qoshg‘ar, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Xonlik savdogarlari Buxoro va Xiva xonliklari bilan savdo munosabatlariga alohida e‘tibor qaratgan. Bu xonliklar o‘zaro chegaradosh bo‘lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o‘zaro munosabatlarning muhim omili bo‘lib xizmat qilgan [5, 37-b].

N. Topildiyev arxiv hujjatlarida 1810-yil Sibir liniyasi boshlig‘i general-leytenant Glazenep Qo‘qon xonligiga savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish haqida murojaat qilganligi haqida ma‘lumotlar borligini ma‘lum qilgan. 1811-yilda esa Rossiya vakillari shunday taklif bilan Toshkent orqali Qo‘qonga kelganlar. Bu esa o‘z navbatida xonlikning tashqi savdoda nafaqat Buxoro amirligi va Xiva xonliklari balki boshqa yirik davlatlar bilan ham savdo-sotiq va elchilik aloqalariga katta e‘tibor berganligidan dalolat beradi.

Qo‘qon xonligida taraqqiy etgan o‘ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravasozi edi. Chunki, aravasozi xonlik savdogarlari tomonidan ichki va tashqi savdoda keng foydalanilgan. Aravasozi Qo‘qon, Toshkent, Namangan va Marg‘ilon shaharlarida rivojlangan bo‘lib, xonlikda tayyorlangan aravalar “Qo‘qon arava” nomi bilan O‘rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo‘qon aravasozi va egarjabduq tayyorlash bo'yicha O‘rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo‘qon arava 25-40 pud (1 pud - 16 kg. ga teng) gacha yuk ko‘tara olgan va, asosan, otlar yordamida

manzilga olib borilgan. Shuning uchun bu aravalar ichki va tashqi savdodani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan [1.35-b].

Qo‘qon xonligida soliq yig‘imiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mirza, amin, sarkor, oqsoqol kabilar soliq ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar bo‘lgan. Soliqlar beklik va xossachi turlariga bo‘lingan. Beklik mahalliy viloyat hokimi xazinasini uchun yig‘ilgan bo‘lsa, xossachi xon xazinasini foydasiga olingan.

Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj hisoblanib, sharoitga qarab 1/3, 1/4 va 1/5 miqdorida belgilangan. Asosiy soliqlardan yana biri tanob (tanobona) bo‘lib, u bog‘lar va bedazorlar kabi yerlaridan olingan. Tanobning miqdori aniq belgilanmagan. Tanob miqdori vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turgan. Qo‘qon xonligida XIX asrning o‘rtalari da rezavor mevali yerlardan va bog‘larning har tanobidan 3 tangadan 11 tillagacha soliq olingan. Xonlikda aholidan olinadigan zakot solig‘i 40 tillodan ortiq mablag‘ va chorva mollari mavjud bo‘lgan shaxslardan 1/40 miqdorda xon xazinasiga undirilgan. Chet eldan kelgan savdo karvonlaridan olinadigan zakot miqdori 2,5 % ga, yahudiy va xristianlar tovarlaridan olinadigan zakot esa 5 % ga teng bo‘lgan. Chorvadorlardan olinadigan tutun puli kabi soliqlar ham xon xazinasiga yig‘ilgan. Umuman olganda, adabiyotlarda o‘tin puli, kechuv puli, ko‘mir puli kabi 90 tadan ortiq soliq turlari bo‘lganligi keltirilgan. Lekin, xonlik aholisining barchasi shu soliqlarga birday tortilgan, deb bo‘lmaydi [5, 33-b].

Chunki buning sababini Qo‘qon xonligi murakkab geografik hududda joylashgani bilan izohlash mumkin. Masalan, suv yaxshi ta‘minlanadigon dehqonchilik yerlaridan ko‘proq, aksincha suv yaxshi yetib bormaydigon yerlardan esa ozroq soliq undirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] I. KUZIKULOV, QO'QON XONLIGI TARIXI, Namangan, 2014.
- [2] G. TANIYEVA, QO‘QON XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI, TOSHKENT, 2024.
- [3] Р.Р.Алимова, Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари, Toshkent, 2017.
- [4] П. В., Показание сибирского козика Максимова о Кокандском владении, 1860.
- [5] I. KUZIKULOV, QO'QON XONLIGI TARIXI, Namangan, 2014.